



FINLANDIYA VA ROSSIYA FEDERATSIYASI TAJRIBALAR ASOSIDA O'ZBEKISTON MAKTABLARIDA MOLIVAVIY SAVODXONLIK OSHIRISH

PhD, dots. **Shamansurova Zilola Abdurahitovna**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0009-0009-5152-3518

z.shamansurova@tsue.uz

Ahmadjonov Abdulloh Ahadjon o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0000-0001-8368-1435

akhmdjonovabdullokh@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola O'zbekiston ta'lim tizimida, ayniqsa, maktab ta'limida moliyaviy savodxonlik darajasini oshirishning muhim masalalarini ko'rib chiqish, ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganishga bag'ishlangan. Maqolada Finlyandiya va Rossiya Federatsiyasining moliyaviy savodxonlik dasturlari tahlil qilinib, ularni O'zbekiston sharoitlariga moslashtirish yo'llari o'rganiladi. Moliyaviy savodxonlik aholining iqtisodiy barqarorligi va farovonligiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ta'kidlagan holda, tadqiqotda davlat va xususiy sektor hamkorligi, ta'lim muassasalarida maxsus kurslar va malaka oshirishlar tashkil etish, shuningdek, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish zarurligi qayd etilgan. Finlyandiya va Rossiya Federatsiyasi tajribalari asosida ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar O'zbekiston maktab ta'limi tizimida moliyaviy savodxonlikni oshirishga qaratilgan amaliy dasturlarni shakllantirishda katta ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: moliyaviy savodxonlik, moliyaviy savodxonlik markazi, maktab ta'limi, iqtisodiy fanlar, moliyaviy bilimlar, Finlyandiya ta'lim tizimi, Rossiya Federatsiyasi ta'lim tizimi.

ПОВЫШЕНИЕ ФИНАНСОВОЙ ГРАМОТНОСТИ В ШКОЛАХ УЗБЕКИСТАНА НА ОСНОВЕ ОПЫТА ФИНЛЯНДИИ И РОССИЙСКОЙ ФЕДЕРАЦИИ

PhD, доц. **Шамансурова Зилола Абдувахитовна**

Ташкентский государственный экономический университет

Ахмаджонов Абдуллох Ахаджонович

Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. Данная статья посвящена рассмотрению важных вопросов повышения уровня финансовой грамотности в системе образования Узбекистана, особенно в школьном образовании, а также изучению передового зарубежного опыта. В статье анализируются программы финансовой грамотности Финляндии и Российской Федерации и изучаются пути их адаптации к условиям Узбекистана. Подчеркивая, что финансовая грамотность положительно влияет на экономическую стабильность и благосостояние населения, в исследовании отмечается необходимость сотрудничества государственного и частного сектора, организации специальных курсов и обучения в образовательных учреждениях, а также использования современных технологии и интерактивные методы. Предложения и рекомендации, разработанные на основе опыта Финляндии и Российской Федерации, имеют большое значение при формировании практических программ, направленных на повышение финансовой грамотности в системе школьного образования Узбекистана.

Ключевые слова: финансовая грамотность, центр финансовой грамотности, школьное образование, экономические науки, финансовые знания, система образования Финляндии, система образования Российской Федерации.

INCREASING FINANCIAL LITERACY IN UZBEKISTAN SCHOOLS BASED ON THE EXPERIENCES OF FINLAND AND THE RUSSIAN FEDERATION

*PhD, assoc. prof. Shamansurova Zilola Abduvahitovna
Tashkent State University of Economics
Akhmadjonov Abdullokh
Tashkent State University of Economics*

Abstract. *This article is dedicated to the consideration of important issues of increasing the level of financial literacy in the educational system of Uzbekistan, especially in school education, and to the study of advanced foreign experiences. In the article, the financial literacy programs of Finland and the Russian Federation are analyzed and ways of their adaptation to the conditions of Uzbekistan are studied. Emphasizing that financial literacy has a positive effect on the economic stability and well-being of the population, the research notes the need for public and private sector cooperation, the organization of special courses and training in educational institutions, as well as the use of modern technologies and interactive methods. Proposals and recommendations developed on the basis of the experiences of Finland and the Russian Federation are of great importance in the formation of practical programs aimed at increasing financial literacy in the school education system of Uzbekistan.*

Keywords: *financial literacy, financial literacy center, school education, economic sciences, financial knowledge, education system of Finland, education system of the Russian Federation.*

Kirish.

O'zbekistonda moliyaviy savodxonlikni oshirish masalasi hali yangi bo'lsa-da, bu yo'nalishda qator muhim qadamlar qo'yilmoqda. Lekin bu jarayonni yanada samarali amalga oshirish uchun yetakchi mamlakatlar tajribasidan o'rganish lozim. O'zbekiston maktablarida moliyaviy savodxonlikni oshirish, aholi orasida iqtisodiy barqarorlik va farovonlikni ta'minlashda muhim qadamdir. Bunda yetakchi mamlakatlar tajribasi asosida o'quv dasturlarini ishlab chiqish, o'qituvchilarni tayyorlash va innovatsion yondashuvlarni qo'llash orqali muvaffaqiyatga erishish mumkin. So'ngi yillarda O'zbekistonda aholining moliyaviy savodxonligini oshirish davlat siyosati darajasida qaralmayotgan bo'lsa-da, yirik moliyaviy institutlar tomonidan aholida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, Markaziy Bank tasarufida 2021-yilda "Moliyaviy savodxonlik va ommaboplikni oshirish departamenti" ochilgan bo'lib, departamentning asosiy vazifalaridan biri turli yosh guruhlari uchun zamonaviy o'quv materiallarini tayyorlash va sinovdan o'tkazish, shuningdek, Markaziy bankning moliyaviy savodxonlik bo'yicha axborot-ta'lim resursini ishlab chiqish va yuritib borish hisoblanadi. Mazkur departament aholining moliyaviy savodxonligini oshirish loyihasi doirasida finlit.uz web saytini ishga tushirgan. Lekin bu sayt asosan yoshi katta kontingent uchun mo'ljallangan bo'lib, maktab yoshidagilar uchun moslashtirilmagan.

Adabiyotlar sharhi.

Moliyaviy savodxonlik hozirgi kunda global iqtisodiy barqarorlik va farovonlikka erishishda muhim omil bo'lib qolmoqda. Bu bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar va adabiyotlar tahlili moliyaviy savodxonlikni oshirish uchun samarali strategiyalarni ishlab chiqish imkonini beradi.

Moliyaviy savodxonlik – bu shaxsning moliyaviy qarorlar qabul qilish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va qobiliyatlarni egallaganlik darajasi. Lusardi va Mitchell (2014) tadqiqotlari moliyaviy savodxonlikning iqtisodiy ahamiyatini o'rganib, uning shaxsiy farovonlik va iqtisodiy barqarorlikka ta'sirini baholab ko'rsatdi. Atkinson va Messy (2012) tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar esa OECD/INFE (International Network on Financial Education) dasturi doirasida

moliyaviy savodxonlikni baholash natijalarini taqdim etdi va moliyaviy bilimlarning aholi farovonligiga ta'sirini tahlil qilgan.

Moliyaviy savodxonlikni o'quv dasturlariga integratsiya qilish zamonaviy ta'limning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. OECD (2013) moliyaviy savodxonlik ta'limini maktab dasturlariga kiritish usullari haqida ma'lumot beradi va bu jarayonning turli mamlakatlarda qanday amalga oshirilishini tahlil qilgan. Mandell (2008) o'z tadqiqotlarida AQSh maktablarida moliyaviy savodxonlik darajasini oshirish uchun maxsus kurslar va treninglar tashkil etishni tavsiya etgan.

Kanada va Yaponiya davlatlarining moliyaviy savodxonlik ta'limidagi tajribalari bu borada yaxshi natijalar ko'rsatgan. OECD (2017) va APEC (2019) hisobotlari ushbu mamlakatlarda moliyaviy savodxonlik darajasini oshirish uchun qabul qilingan strategiyalar va dasturlarni batafsil o'rganilgan. Kanadada moliyaviy savodxonlik dasturlari maktabgacha ta'limdan boshlab, bosqichma-bosqich amalga oshirilsa, Yaponiyada qisqa muddat ichida moliyaviy ta'lim berish samaradorligi oshirilgan.

O'zbekistonda moliyaviy savodxonlikning hozirgi holati, mavjud muammolar va imkoniyatlar tahlili davlat va xususiy sektor hamkorligini kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya Vazirligi va O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan taqdim etilgan hisobotlar aholining moliyaviy bilim darajasini oshirish uchun amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar haqida ma'lumot beradi. World Bank (2014) tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar esa O'zbekistonda moliyaviy ko'nikmalarni oshirish uchun taklif qilingan strategiyalarni batafsil bayon etgan

Moliyaviy savodxonlikni oshirish uchun samarali strategiyalar va yondashuvlar tahlili davlat va xususiy sektor hamkorligini kuchaytirishni, zamonaviy texnologiyalardan foydalanishni va interaktiv usullarni tatbiq etishni o'z ichiga oladi. Lusardi va boshqalar (2017) tadqiqotlarida moliyaviy bilimlarning ijtimoiy va iqtisodiy tengsizlikka qarshi kurashdagi o'rni ko'rsatilgan bo'lib, ushbu bilimlarni oshirish orqali iqtisodiy tengsizlikni kamaytirish mumkinligi ta'kidlangan.

Moliyaviy savodxonlikka oid adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, moliyaviy bilimlar va ko'nikmalarni oshirish shaxsiy va ijtimoiy farovonlikka sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish va ularni O'zbekiston sharoitiga moslashtirish orqali maktab ta'lim tizimida moliyaviy savodxonlikni oshirish bo'yicha samarali chora-tadbirlarni amalga oshirish mumkin. Shu bilan birga, davlat va xususiy sektor hamkorligini kuchaytirish, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish va interaktiv usullarni tatbiq etish muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotimiz maktab o'quvchilarini turli o'yinlar orqali moliyaviy bilimlarni o'rgatish orqali moliyaviy savodxonligini oshirish bo'yicha ilg'or xorij tajribalari o'rganamiz. Bu borada ulkan tarixiy tajribaga ega bo'lgan Finlandiya va Rossiya Federatsiyasi davlatlarining pedagogik tajribalari bilan yaqindan tanishib chiqamiz.

Maktab o'quvchilari doirasida moliyaviy savodxonlik ta'limini berishda Finlandiya va Rossiya Federatsiyasi ta'lim tajribasini o'rganish uchun bir qancha sabablar mavjud. Birinchidan, Finlandiya ta'lim tizimining asosiy vazifasi asosan keng jamoatchilik orasida moliyaviy savodxonlikni oshirish bilan birga, moliyaviy savodxonlik bo'yicha milliy strategiyani ishlab chiqish va uni amaliyotga integratsiya qilishdan iborat hisoblanadi. Bundan tashqari Finlandiya ta'lim tizimi dunyoda yetakchilaridan biriligi ham ma'lum ma'noda bu mamlakatdagi ta'limga tizimida ham bevosita moliyaviy savodxonlikni o'qitish tajribasi yuqoriligini bilish mumkindir. Ikkinchidan, Rossiyada maktab ta'limida o'quvchilarga sifatli moliyaviy ta'lim berish maqsadida ishlab chiqilgan ko'plab interaktiv o'yinlar Rossiya Federatsiyasi xalq ta'lim vazirligi, Rossiya Markaziy Banki va ko'plab moliya institutlari bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan bo'lib, maktablarda o'qituvchilar tomonidan dars jarayonlarida faol foydalanib kelinmoqda. O'quvchilarni yoshiga, bilim darajasiga, maktabdagi moddiy texnik

bazaga va mavzuga qarab o'qituvchilar tomonidan o'yinlar tanlanishi mumkin. Bu o'yinlarni Rossiya Markaziy Bank va ko'plab tijorat banklari va ko'plab ta'lim sayti va platformalaridan topish mumkin. Albatta, bu O'zbekiston maktablarida boshlang'ich va o'rta sinflarda ta'lim olayotgan o'quvchilarga moliyaviy ta'lim berish jarayonini osonlashtirish va tezlashtirish uchun xizmat qiladi.

Tadqiqot davomida erishilgan natijalar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston maktablarida moliyaviy savodxonlik ta'limini berishda ilg'or xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish va mos deb hisoblanganlarini maktab ta'limiga joriy qilish juda muhim. Shuningdek, bu jarayon ta'lim usullarini aniqlash va vaqt hamda resurslarni tejashga yordam beradi. Maktablarda moliyaviy savodxonlikni oshirish uchun maxsus kurslar va treninglar tashkil etish zarur. Bu kurslar turli yoshdagi o'quvchilar uchun moslashtirilgan bo'lishi kerak. Bundan tashqari, moliyaviy savodxonlikni oshirish uchun davlat va xususiy sektor hamkorligini kuchaytirish zarur. Bu jarayon zamonaviy texnologiyalar va interaktiv usullarni tatbiq etishni o'z ichiga olishi zarur.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Rossiya Federatsiyasi ham maktab ta'limi bo'yicha o'ziga xos o'ringa ega davlat hisoblanadi. Rossiya ta'lim bo'yicha jahonda 27-o'rinda turadi (OECD, 2018). Rossiya Federatsiyasi aholisining moliyaviy savodxonligi darajasi ancha past. Aholining qarz yuki koeffitsienti oshib bormoqda, banklar oldida qarzdor bo'lgan bankrot jismoniy shaxslar soni ham ortib bormoqda. Ko'pgina fuqarolar turli xil moliyaviy instrumentlar bilan bog'liq xavflarni inobatga olmaydi, o'zlarining moliyaviy qarorlari va moliyaviy bozorlarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yo'qotishlar uchun risklarni baholay olmaydilar. Rossiya fuqarolarining oz qismi o'zlarining shaxsiy mablag'larini to'g'ri boshqara oladigan ya'ni moliyaviy instrumentlardan oqilona foydalangan holda o'zlarining passiv daromadlarini shakllantirish imkoniga ega hisoblanadilar. Ular daromadlari va xarajatlarini rejalashtirishadi, moliyaviy xizmatlarni tahlil qiladilar, kutilmagan vaziyatlarda uzoq muddatli jamg'armalar yaratadilar⁶.

Shularni inobatga olgan holda moliyaviy savodxonlik o'rganish, moliyaviy rivojlanish va boshqarishni o'rgatishning bir qator vositalardan foydalanilmoqda. Bu vositalar o'quvchilarga moliyaviy ko'nikmalar va tushunchalarni o'rgatish uchun ishlab chiqilgan.

Rossiya Federatsiyasida 2016-yil aprel oyidan boshlab Rossiya Federatsiyasi Moliya vazirligi qoshida "Umumiy va o'rta ta'lim tizimida moliyaviy savodxonlik federal metodik markaz"i ochildi. Bu markaz oldiga bir qancha asosiy vazifalar belgilab berildi, bu vazifalar federatsiyada maktab ta'limida moliyaviy savodxonlikni o'quvchilarga o'rgatishdan tashqari aholi orasida ham moliyaviy savodxonlikni keng ko'lamda yoyish uchun xizmat qilib kelmoqda. Federal uslubiyot markazni asosiy vazifalar quyidagilar⁷:

- fuqarolarning moliyaviy savodxonligini oshirish va moliyaviy madaniyatini rivojlantirishga tizimli yondashuvni ta'minlash, moliyaviy xavfsizlik darajasini, shu jumladan moliyaviy kiberxavfsizlikni oshirish;

- moliyaviy savodxonlik va moliyaviy madaniyat darajasini oshirishga qaratilgan ta'lim dasturlari mezonlari va talablarini ishlab chiqish va tasdiqlash, amalga oshirilayotgan dasturlar sifatini monitoring qilish;

- Rossiya Federatsiyasi ta'lim tizimiga moliyaviy madaniyatni shakllantirishni ta'minlaydigan o'quv dasturlari, o'quv va uslubiy materiallarni joriy etish, ularni o'z vaqtida yangilash

- moliyaviy savodxonlik profilida maktab o'quvchilari uchun "Yuqori standart" Umumrossiya olimpiadasini o'tkazish;

⁶ Janubiy Ural universitetining dotsenti Yuliya Butrinaning moliyaviy savodxonlik maktabda majburiy fanga aylanishi kerak maqolasidan, 2021.13.09

⁷ SberBank. Kelajak uchun sarmoya web sayti. vbudushee.ru

- moliyaviy savodxonlik elementlarini o'z ichiga olgan ta'lim dasturlarini o'rgatuvchi o'qituvchilar uchun kasbiy tanlovlar o'tkazish orqali moliyaviy savodxonlikni o'rgatishning ilg'or pedagogik tajribalarini aniqlash va targ'ib qilish;

- moliyaviy savodxonlik va moliyaviy madaniyat masalalari bo'yicha jamoatchilik fikrini tahlil qilish, jamiyatning moliyaviy savodxonlik va moliyaviy madaniyat sohasida bilim olishga bo'lgan ehtiyojlarini o'rganish va tegishli murojaatlarga o'z vaqtida javob berishni ta'minlash kabi vazifalar belgilar berilgan.

Markaz haqida va uning amaliy tajriba natijalari haqida ochiq ma'lumotlar ularning web sahifalarida doimiy yoritib boriladi. Web sahifada markaz tomonidan ishlab chiqilgan uslubiy ishlanmalar, o'quv dasturlar, vebinarlar, ochiq darslar bo'yicha namunalar keltirib o'tilgan⁸.

Har bir sinf bo'yicha hamda o'quvchilarning yosh toifalaridan kelib chiqib alohida mavzular ishlab chiqilgan va bu mavzular bo'yicha video yo'riqnomalar ham web sahifaga yuklab qo'yilgan. Bu mavzular o'quvchilarga o'rgatilayotgan fanlar va o'qitilayotgan moliya-iqtisod bo'yicha fanlardagi mavzulardan kelib chiqib ishlab chiqilgan.

Markaz tomonidan 2017-yildan boshlab moliyaviy savodxonlik olimpiadalari ham doimiy ravishda o'tkazib kelinmoqda. Bunday tashabbus Rossiya Federatsiyasi Moliya vazirligi tomonidan ilgari surilgan. Olimpiada o'tkazishdan asosiy maqsad maktab o'quvchilarning moliya sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatiga bo'lgan qiziqishini oshirish, moliya bozorlarining ishlash mexanizmi haqida ilmiy bilimlarni ommalashtirish, maktab o'quvchilarga kasbiy yo'l-yo'riq ko'rsatish, shaxsiy moliyani oqilona boshqarish ko'nikmalarini egallashdan iborat. Olimpiada o'quvchilar uchun muhim tarbiyaviy funksiyani ham bajaradi, ya'ni o'quvchilarni ota-onalar o'rtasida moliya sohasidagi bilimlarni tarqatish va xavfsiz moliyaviy bilimlarni egallashga yordam beradi. Moliyaviy savodxonlik olimpiadasida 7-11 sinf o'quvchilar va o'rta umumiy ta'limning ta'lim dasturlari bo'yicha o'qishni tugatmagan o'rta maxsus ta'lim tashkilotlar (texnikum, kollejlari) o'quvchilar ishtirok etadilar. O'quvchilar uchun bu olimpiadada qatnashish nafaqat moliyaviy savodxonlik bo'yicha bilimlarni sinab ko'rishiga, balki universitetlarga ham kirish uchun imtiyozlarga ega bo'lishlariga zamin yaratishi mumkin. Olimpiadada tushgan har yilgi savollar va topshiriqlar doimiy ravishda markaz web sahifasiga yuklab boriladi, bu esa olimpiadada qatnashmagan yoki kelgusida qatnashmoqchi bo'lgan o'quvchilar yoki ustozlar uchun dars jarayonlarida qo'shimcha moliyaviy savodxonlikni o'zlashtirish uchun asos ko'makchi bo'lib xizmat qiladi⁹.

Rossiyada maktab ta'limi, davlat tomonida tartibga solingan va turli bosqichlarda o'quvchilarni tayyorlash tizimi ichiga oladi. Rossiyada maktab ta'lim tizimi o'zining o'ziga xos metodika va dasturlarga ega hisoblanadi va bir qancha bosqichlardan iborat.

1. Boshlang'ich ta'lim sinflari.

Boshlang'ich ta'lim 6-7 yoshdan boshlab, 10-11 yoshgacha bo'lgan yosh guruhlar uchun mo'ljallangan. Boshlang'ich ta'lim o'quvchilarga o'qishga motivatsiya berish, o'quvchilarning ijodiy va badiiy qobiliyatlarining rivojlantirish va dunyo bilan tanishishlarini ta'minlash maqsadida tuziladi. Bu bosqichda o'quvchilarga moliyaviy savodxonlikni oshirish uchun matematika, mantiqiy fikrlash kabi fanlar o'qitiladi.

Boshlang'ich ta'lim sinflari uchun bir qancha moliyaviy savodxonlikka oid o'yinlar ishlab chiqilgan. "Yosh moliyachi", "Moliyaviy teatr biznes o'yini", "Pulni qanday sarflash kerak", "Yosh soliqchilar", "Moliyaviy risklardan qanday himoyalanamiz?" kabi moliyaviy o'yinlar mavjud¹⁰.

2. O'rta ta'lim sinflari.

O'rta ta'lim 10-11 yoshdan 15-16 yoshgacha bo'lgan yosh guruhlar uchun mo'ljallangan bo'lib, o'quvchilarning umumiy o'rta ta'limni olish uchun mo'ljallangan. O'rta ta'lim sinflari, o'quvchilarga umumiy o'rta ta'limni olish, analitik fikr qobiliyatlarini rivojlantirish va o'zgaruvchanliklarga moslashish maqsadida ta'lim jarayonlari tashkillashtiriladi. Mazkur yosh

⁸ www.vbudushee.ru

⁹ Rossiya Federatsiyasining ta'lim vazirligi rasmiy sayti, edu.gov.ru

¹⁰ <https://www.suomenpankki.fi/en/learn-economy/learn-economy/financial-literacy-project/>

bosqichida ta'lim olayotgan o'quvchilar moliyaviy matematika, iqtisodiyot, moliyaviy boshqaruv kabi fanlar o'qitiladi.

O'rta ta'lim sinflari uchun ham quyidagi moliyaviy savodxonlikni rivojlantirish uchun moliyaviy o'yinlar mavjud: "Tadbirkorlik", "Oilaviy budjetni" biznes o'yini, "Moliyaviy bozor" o'yinlar, "Shaxsiy biznes rejani tuzish", "Iste'molchilar huquqini himoya qilish" biznes o'yini singari moliyaviy o'yinlar mavjud¹¹.

3. Yuqori ta'lim sinflari.

Yuqori o'rta ta'lim esa 15-16 yoshdan boshlab 17-18 yoshgacha bo'lgan yosh guruhlar uchun mo'ljallangan bo'lib, ular asosan oliy ta'limga tayyorlash uchun o'qitiladi. Yuqori o'rta ta'lim sinflari, o'quvchilariga oliy ta'limga tayyorgarlik va o'zlarining tanlagan yo'nalishda kengroq bilim olish imkonini berish maqsadida ta'lim jarayonlari tashkil etiladi. Yuqori ta'lim sinflariga ehtimollar nazariyasi, biznes va moliyaviy soha kabi moliyaviy fanlar o'qitiladi.

Bunday o'yinlardan dars mashg'ulotlarida foydalanish o'quvchilarda moliyaviy bilimlarni kengroq egallashda yordam beradi, lekin ba'zi o'yinlar ma'lum darajada o'ziga yarasha infrastrukturani talab qilishi va moddiy texnik bazani ham talab qilishi mumkin.

Quyidagi usullar Rossiya maktablarida moliyaviy savodxonlikni o'rgatishda amaliyotda foydalanib kelinmoqda:

- Moliyaviy o'yinlar va simulyatsiyalar.

Moliyaviy o'yinlar va simulyatsiyalar, o'quvchilarga moliyaviy ko'nikmalarni o'rganishda va ularning amaliyotda qo'llashda yordam beradi. Bu o'yinlar moliyaviy xarajatlarni rejalashtirish, passiv daromadlarni shakllantirishga kabi mavzularni qamrab oladi.

- Moliyaviy ta'lim darslari. Moliyaviy ta'lim darslari o'quvchilarga moliyaviy konsepsiyalarni nazariy va amaliy ravishda o'rgatishda yordam beradi. Bu darslar moliyaviy hujjatlarni tushunish, moliyaviy ma'lumotlarni hisoblash, jamg'arma shaklida fondlarni tuzish, investitsiyalar va boshqa moliyaviy ko'nikmalarni o'rgatishga yo'l ochadi.

- Moliyaviy kichik guruhlar tuzish orqali. Moliyaviy kichik guruhlar o'quvchilarga moliyaviy tajribalarni shakllantirish va ularning moliyaviy ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi. Bunday kichik guruhlar moliyaviy munosabatlar bo'yicha jamoaviy ishlash va muzokaralar o'tkazish, moliyaviy ko'nikmalar ustida o'quv mashg'ulotlar tashkil etishadi.

- Biznes va moliyaviy innovatsiyalar bo'yicha tanlovlar. Biznes va moliyaviy innovatsiyalar bo'yicha tanlovlar va qo'llanmalar, o'quvchilarga moliya sohasida innovatsion fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi. Bu tanlovlar o'quvchilarga yangi biznes g'oyalarni ishlab chiqish, biznes rejalar tuzish va boshqa moliyaviy savollar ustida o'ylash imkoniyatini beradi¹².

Rossiyada maktab ta'limida o'quvchilarga sifatli moliyaviy ta'lim berish maqsadida ishlab chiqilgan ko'plab interaktiv o'yinlar Rossiya Federatsiyasi xalq ta'lim vazirligi, Rossiya Markaziy Banki va ko'plab moliya institutlari bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan bo'lib, maktablarda o'qituvchilar tomonidan dars jarayonlarida faol foydalanib kelinmoqda. O'quvchilarni yoshiga, bilim darajasiga, maktabdagi moddiy texnik bazaga va mavzuga qarab o'qituvchilar tomonidan o'yinlar tanlanishi mumkin. Bu o'yinlarni Rossiya Markaziy Bank va ko'plab tijorat banklari va ko'plab ta'lim sayti va platformalaridan topish mumkin.

Moliyaviy savodxonlik markazi Finlandiya Banki huzurida 2022-yil yanvar oyidan faoliyat ko'rsatishni boshladi. Markazni asosiy vazifasi asosan keng jamoatchilik orasida moliyaviy savodxonlikni oshirish bilan birga, moliyaviy savodxonlik bo'yicha milliy strategiyani ishlab chiqish va uni amaliyotga integratsiya qilishdan iborat hisoblanadi. Bu markazni oldiga qo'yilgan asosiy vazifa 2030-yilga kelib Finlandiya dunyodagi eng yaxshi moliyaviy savodxonlikka ega bo'lgan davlat bo'lishi uchun ta'lim tizimida moliyaviy savodxonlikni o'quvchilar orasida kengroq yoyishdan iborat hisoblanadi. Buning uchun bugungi kunda har

¹¹ <https://www.suomenpankki.fi/en/learn-economy/learn-economy/games-in-financial-education/>

¹² <https://fmc.hse.ru/openlessons>

bir bosqichdagi o'quvchilarini dars mashg'ulotlariga muayyan moliyaviy o'yinlarni joriy qilib kelinmoqda¹³.

Finlandiya maktab tizimi uchta asosiy bosqichga ajratilgan.

1. Boshlang'ich ta'lim. Bu bosqichida sinf darajalari 1-6 sinflar orasida bo'ladi, yosh oralig'i esa 7-13 yoshni qamrab oladi. Boshlang'ich ta'lim majburiy bo'lib, umumiy bilimlar asosiga ega bo'lishga qaratilgan hisoblanadi. Ushbu bosqichda o'quvchilar yozish, matematika, tabiiy fanlar kabi bir nechta fanlar o'rgatiladi.

2. O'rta ta'lim. Bu bosqichida sinf darajalari 7-9 sinflar orasida bo'ladi, yosh oralig'i esa 14-16 yoshni qamrab oladi. Bu bosqichda o'quvchilarga ko'proq ixtisoslashgan fanlar o'rgatiladi.

3. O'rta maxsus ta'lim. Yosh oralig'i 16-19 yoshni tashkil etadi. Bu bosqich 2 ta qismga bo'linadi.

3.1. Akademik yo'nalishdagi o'rta ta'lim. Universitetga kirishni maqsad qilgan o'quvchilar uchun mo'ljallangan. Bu yerda o'quvchilar umumiy fanlar bo'yicha chuqurroq bilim oladi va yakuniy imtihonlar topshiradilar.

3.2. Kasbiy ta'lim. Ish bozoriga to'g'ridan-to'g'ri kirishni xohlagan o'quvchilar uchun mo'ljallangan. Bu yerda o'quvchilar kasbiy ko'nikmalarni va amaliy tajribani egallaydilar.

Har bir bosqichda o'quvchilarning sinflari, yoshlari, o'rgatilayotgan fanlardan kelib chiqib, o'quvchilarda moliyaviy savodxonlikni oshirishga doir "Moliyaviy savodxonlik markazi" tomonidan mexanizm ishlab chiqilgan. Bu mexanizmlar aynan markaz tomonidan maktablarda o'quv dasturlarni aynan moliyaviy savodxonlikni oshirish bo'yicha xalqaro ekspertlar va mutahassislar tomonidan berilgan tavsiyalardan kelib chiqan holda ishlab chiqilgan. O'quv dasturlarda aniq va ijtimoiy fanlar kesmida, fanlardagi mavzulardan kelib chiqqan holda, mavzu doirasida moliyaviy savodxonlik o'quvchilarga o'rgatiladi. O'quvchilarning yoshi hamda qaysi sinf bosqichida o'qiyotganligidan kelib chiqqan holda pul operatsiyalarini harakatini boshqarish, foiz stavkalar, investitsiya, kreditlar, soliq tizimi, iqtisodiyot kabi tushunchalar va bu tushunchalar mazmunini amaliyot bilan bog'lagan holda moliyaviy matematik misollar orqali yanada chuqurroq o'quvchilarga o'rgatilib kelinmoqda. Markaz tomonidan tavsiya qilingan metodologik mexanizmlarni eng katta foydasi shunki, moliyaviy bilimlarni iqtisodiy, matematik fanlardagi mavzular bilan integratsiya qilib o'quvchilarga yetkazishda har turdagi moliyaviy o'yinlardan keng foydalanib kelishmoqda. Bu o'yinlar orqali dars mashg'ulotlarini olib borish o'quvchilarga oldindan to'g'ri qarorlar qabul qilish hamda bu pul mablag'larni to'g'ri boshqarish bo'yicha amaliy ko'nikmalar hosil qilishda juda samarali foyda keltiradi. Bunday moliyaviy o'yinlarni dars mashg'ulotlaridan tashqari vaqtlarda ham o'ynash uchun alohida maktablar qoshida maxsus kurslar tashkil qilingan bo'lib, ular ham o'quvchilarda moliyaviy savodxonlikni shakillantirishda juda samarali yordam berib kelmoqda. Moliyaviy savodxonlik markazi tomonidan ishlab chiqilgan mexanizmida faqat o'quvchilar maktab tomonidan berilayotgan bilimlar va fan mavzulari bilan cheklanib qolmasligi ta'minlangan. O'quvchilarda yanada ko'proq va keng ko'lamda moliyaviy savodxonlik bo'yicha amaliy ko'nikmalarni shakillantirishda ishlab chiqarishni jalb qilish va oilaviy muhitni ham hisobga olish muhim omil sifatida qayd etib qo'yilgan. Ya'ni jarayon bo'yicha kichik biznes loyihalar ishlab chiqish va ularni moliyalashtirish bo'yicha eng optimal variantlarni o'ylash, o'quvchilar o'zlarini kundalik xarajatlari to'g'ri boshqarish, moliya muassalari bilan o'quvchilarni qiziqishlarini hisobga olgan holda seminar-treninglar tashkil etish kabi tushunchalar berib boriladi (Pana Kalmi, 2022).

Ushbu ilmiy ishni yozish davomida O'zbekistonda moliyaviy savodxonlik ta'limini berish jaroyoni bo'yicha quyidagi asosiy savollar paydo bo'ldi. O'zbekiston sharoitida maktab yoshidanoq moliyaviy savodxonlik ta'limini berishni qanday tashkillantirilsa yuqori samaradorlikka erishish mumkin? Yoshlarni moliyaviy savodxonlik darajasini maktab yoshidan oshirish uchun darslardan bo'sh vaqtlari ularni qanday jalb qilish mumkin? Bu borada

¹³ <https://fmc.hse.ru/olymp>

xorijiy tajribalardan nimalarni o'rganishimiz zarur? Mazkur tadqiqotni amalga oshirish davomida ushbu savollarga ilmiy asoslangan javoblar shakllantirildi.

Xulosa va takliflar.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston maktablarida moliyaviy savodxonlik ta'limini berishda ilg'or xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish va O'zbekiston uchun mos deb hisoblanganlarini maktab ta'limiga joriy erish juda muhim. Ilg'or xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish moliyaviy ta'limni berishning samarali usullarini aniqlashga qaratilgan pedagogik tadqiqotlar uchun sarflanadigan moliyaviy resurslarni va vaqtni tejashga imkon beradi. Allaqachon jahon amaliyotida mavjud bo'lgan amaldagi ta'lim usullar va texnikalarini O'zbekiston ta'lim tizimiga joriy etish kelajak avlodni moliyaviy savodxonlik darajasini oshishiga, pirovardida moliyaviy barqaror va farovon avlodni yetishtirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot davomida quydagi takliflar ishlab chiqildi.

- O'quvchilarga moliyaviy bilimlarni o'rgatishda zamonaviy texnologiyalar va interaktiv usullardan foydalanish tavsiya etiladi. Bu raqamli moliya ko'nikmalarini o'rgatishni o'z ichiga oladi.

- Moliyaviy savodxonlikni oshirish bo'yicha davlat va xususiy sektorlar hamkorligini kuchaytirish lozim. Moliyaviy institutlar va ta'lim muassasalari hamkorlikda turli tadbirlar va musobaqalar tashkil etishi mumkin.

- Moliyaviy ta'lim resurslarini yaratish zarur. Bu kitoblar, darsliklar, onlayn kurslar va turli o'yinlar orqali amalga oshirilishi mumkin.

Mazkur tavsiyalar O'zbekiston maktab ta'lim tizimida moliyaviy savodxonlikni oshirishga qaratilgan amaliy dasturlarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ilg'or xorijiy tajribalar asosida ishlab chiqilgan dasturlar va yondashuvlar yosh avlodning moliyaviy bilim va ko'nikmalarini oshirishda samarali bo'ladi. Bu tavsiyalar asosida ta'lim tizimini isloh qilish, o'quv dasturlarini takomillashtirish va moliyaviy savodxonlikni oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanishiga ijobiy hissa qo'shadi.

Adabiyotlar/ *Lumepamypa*/ Reference:

APEC (2019). *Financial Education in Japan: Current State and Challenges*. APEC Policy Support Unit.

Atkinson, A., & Messy, F. A. (2012). *Measuring Financial Literacy: Results of the OECD / International Network on Financial Education (INFE) Pilot Study*. OECD Working Papers on Finance, Insurance and Private Pensions.

Lusardi, A., & Mitchell, O. S. (2014). *The Economic Importance of Financial Literacy: Theory and Evidence*. *Journal of Economic Literature*.

Lusardi, A., Michaud, P. C., & Mitchell, O. S. (2017). *Optimal Financial Knowledge and Wealth Inequality*. *Journal of Political Economy*.

Mandell, L. (2008). *Financial Literacy of High School Students*. In *Handbook of Consumer Finance Research*. Springer.

OECD (2013). *Financial Education in Schools*. OECD Publishing.

OECD (2017). *PISA 2015 Results (Volume IV): Students' Financial Literacy*. OECD Publishing.

OECD (2018). *Financial Education in Schools*. OECD Publishing.

Pana Kalmi (2022). *The effects of game-based financial education: New survey evidence from lower-secondary school students in Finland*. *The Journal of Economic Education* Volume 53, Issue 2.

World Bank (2014). *Enhancing Financial Capability and Inclusion in Uzbekistan*. World Bank Report.